

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI  
INNOVATSION METODLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISHNING  
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI.

Eshmatova Go‘zaloy Ziyoyidin qizi.  
"IMKON" RMDKTIMTT pedagog-tarbiyachi.

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta‘lim tizimidagi islohotlar, kreativlik tushunchasi, uning mazmuni, boshlang‘ich sinfi o‘qituvchisining kreativligini rivojlantirish vositalari haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, oliy ta‘lim, kreativlik, innovatsiya, metod, rivojlantirish, islohotlar, boshlang‘ich sinfi, o‘qituvchi.

**Аннотация.** В статье рассматриваются реформы в системе высшего образования, понятие творчества, его содержание и средства развития творческих способностей учителя начальных классов.

**Ключевые слова.** Образование, высшее образование, творчество, инновация, метод, развитие, реформы, начальная школа, учитель.

**Abstract.** The article discusses reforms in the higher education system, the concept of creativity, its content, and means of developing the creativity of a primary school teacher.

**Keywords.** Education, higher education, creativity, innovation, method, development, reforms, elementary school, teacher.

XXI asr axborotlar oqimi ijtimoiy hayotimizning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Shu jumladan ta‘lim sohasiga xam yangiliklar bilan kirib keldi. Mamlakatimizda ta‘lim tizimining barcha bosqichlari zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar asosiy bosqichiga yetib keldi. Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga va ta‘limga bo‘lgan e‘tiboriga tayanadi. Zero, avvalgi ta‘lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining Ta‘lim To‘g‘risidagi Qonunida pedagoglarning vazifalari haqida quydagicha so‘z yuritilgan: "Pedagog xodimlar: ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini hurmat qilishi; o‘quv mashg‘ulotlarini sifatli o‘tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o‘qitish va tarbiyaning ilg‘or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi" alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Bu amaliy ishlarni esa albatta boshlang‘ich ta‘limdan boshlash zarur.

Ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini oliy ta‘lim tizimidagi rejadagi yoki amalda bajarilayotgan islohotlar tashkil etadi. Bunda oliy ta‘lim tizimidagi asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish, mustaqil, ijodiy, zamonaviy fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga ko‘tarish, zamonaviy innovatsion ta‘lim texnologiyalarini amaliyotga qo‘llash talab etilmoqda. Mazkur ehtiyoj va bugungi zamon pedagogikasi oldiga qo‘yilayotgan talablar asosida yosh avlodga sifatli ta‘lim berishda bo‘lajak o‘qituvchilarni kreativligini rivojlantirish talab etmoqda. Prezidentimiz

ta'kidlaganidek: " Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asosan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarniyechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab quvvatlaydi".

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan tarbiyalanuvchilarga oliy ma'lumotli pedagoglar ya'ni tarbiyachilar mashg'ulotlar olib bormoqdalar. Bundan tashqari ota-onalar xam farzandlarini qo'shimcha mashg'ulotlarga olib borishmoqda. Umumta'lim maktablarida bolalar darslardan zerikib qolmasligi uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativligini rivojlantirish zarurati mavjud. Bo'lajak o'qituvchilarda krativlikni innovatsion metodlar vositasida rivojlantirishimiz mumkin. O'qituvchilar an'anaviy dars o'tish usullaridan yiroqlashib, innovatsion metodlar bilan darsni tashkillashtirish mumkin. Innovatsion metodlar - ta'lim jarayonida o'qituvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish, shahsiy fazilatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga yordam beradi. Misol uchun; "Aqliy hujum", "B-B-B", "Kubiklar" kabilarni ko'rsatishimiz mumkin.

"Aqliy hujum" innovatsion metodi.

«Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar tonish imkonini beradi. "Aqliy hujum" usulidan foydalanilganda, odatda mashg'ulot ikki bosqichdan iborat bo'ladi: birinchi bosqich - taklif bosqichi ("aqliy hujumning o'zi) va ikkinchi bosqich - tahlil hamda yechimlarni saralash bosqichi. Bosqichlar o'rtasida kichik tanaffus berilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. "Aqliy hujum"ning birinchi bosqichini o'tkazishga oid tavsiyalar:

Muammoning aniq va ravshan qo'yish lozim!

"Aqliy hujum" o'tkazish uchun asos bo'lgan muammoning qisqacha mohiyatini katta qog'ozga (yoki doskaga, o'quv taxtasiga) katta harflar bilan yozib, hammaga yaxshi ko'rinadigan joyga osib qo'ygan ma'qul.

"Aqliy hujum" - bitta muammo! - har bir "aqliy hujum" faqatgina bitta muammoni hal etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bunday innovatsion metodlarni pedagog dars mobaynida bola yoshi va hususiyatlarini hisobga olib qo'llay olishi uchun o'qituvchi kreativligini ishga solishi kerak bo'ladi. Xo'sh, kreativlik nima? U qanday tushuncha?

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning tushuncha yaratishi, yangi ko'mikmalar hosil qilish qobiliyati, hislatini bildiradi. J. Gilford kreativlikni tavsiyadigan qator individual qobiliyatlarini ko'rsatadi;

- Fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- O'ziga xoslik (originallik);
- Qiziquvchanlik;

- Farazlar yaratish qobiliyati;
- Xayol qila olish (fantaziya).

Talabalarda, bo'lajak pedagoglarda kreativligini rivojlantirish uchun avvalo "kreativlik" tushunchasini mohiyatini anglab olish talab etiladi. "Kreativlik" tushunchasini quydagicha ta'riflash mumkin: Kreativlik inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor ma'nolarini anglatadi.

❖ Kreativlik – bu insonning butun hayoti davomidagi yaratuvchanlik qobiliyatidir.

- ❖ Kreativlik – bu insonning o'z- o'ziga bergan topshiriqlarni bajarish usulidir.
- ❖ Kreativlik – bu intellektning natijasidir.
- ❖ Kreativlik – shaxsdagi orttirilgan yoki tug'ma berilgan qobiliyatdir.
- ❖ Kreativlik – bu ijodiy faoliyatdir.

Pedagogika fanida kreativlik masalasiga bevosita murojaat etgan pedagog olim pedagogika fanlari doktori, professor R.A.Mavlonova o'zining ilmiy ishlarida kreativlik haqida fikrlar bildirgan. Uning «Boshlang'ich ta'limda innovatsiya», «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, integratsiyasi, innovatsiyasi» nomli o'quv qo'llanma va darsliklarida kreativlikka alohida to'xtab o'tgan.

**XULOSA.** Kreativlik bu- pedagogning qiziquvchanlik, o'z kasbiga ijodiy yondashish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o'z kamolotiga intilishdir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativligini rivojlantirish uchun mustaqil fiklashga, yangi g'oyalar yaratishga, sog'lom fiklashga, innovatsion metodlardan foydalanib, darslar tashkil etishini rivojlantirish kerak. Shundagina dars mazmunini o'quvchiga yetkazib berish jarayoni samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim To'g'risidagi qonuni. O'RQ-637-son 23.09.2020.
2. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident>
3. Mavlyanova R.A Rahmanqulova N.X Boshlang'ich ta'limda innovatsiya (metodik qo'llanma)-Toshkent, 2007.
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
6. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)